



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-avgust

396-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni ijrosi haqida”gi 360-6-0-Q/24–sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 360-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 360-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni bilan:

Turizm sohasida qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish maqsadida:

a) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab kirish turizmi faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan turoperatorlarni xorijiy mamlakatlardan respublikaga turistlarni olib kelishda aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan respublika tijorat banklari orqali 50 million AQSh dollari ekvivalentida milliy valyutada yillik 14 foiz stavkada kredit liniyasi ochilishi;

bunda:

tijorat banklari tomonidan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi resurslari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha belgilangan yillik foiz stavkasi tarkibida bank marjasi 3 foizdan oshmagan miqdorda o‘rnatilishi;

kredit mablag‘lari turoperatorlarga 2 yillik imtiyozli davr (foiz va asosiy qarzdan) bilan 10 yil muddatga ajratilishi;

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan tijorat banklariga resurslar 3 yillik imtiyozli davr bilan 12 yil muddatga ajratilishi;

b) 2025-yil 1-avgustga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olinib, litsenziyaga ega bo'lgan turoperatorlarga, istisno tariqasida, ekstremal turlarni tashkil qilish uchun dvigatel hajmi 2,4 litrdan kam bo'lmagan yuqori o'tish qobiliyatiga ega transport vositalari import qilinayotganda bojxona boji va utilizatsiya yig'imini amaldagi stavkaning 25 foizi miqdorida 3 yil muddatga bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etilishi;

bunda, ushbu transport vositasi import qilingan kundan boshlab 3 yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidan tashqarida foydalanilganligi, boshqa shaxslarga sotilganligi yoki o'tkazilganligi yoxud ijaraga berilganligi aniqlangan taqdirda, bojxona boji va utilizatsiya yig'imi to'liq hajmda import qilgan shaxsdan undirib olinishi;

v) 2025-yil 1-avgustga qadar turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan import qilinadigan avtobus va mikroavtobuslar bojxona bojidan ozod etilishi:

bunda:

mazkur imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilayotgan yangi ishlab chiqarilgan, "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan avtobus va haydovchidan tashqari sakkiz va undan ortiq o'rindiqlarga ega bo'lgan mikroavtobuslar uchun taqdim etilishi;

import qilingan avtobuslar va mikroavtobuslar import qilingan kundan boshlab 3 yil davomida boshqa shaxsga sotilgan yoki o'tkazilgan yoxud ijaraga berilgan taqdirda, taqdim etilgan imtiyozlar bekor qilinishi hamda bojxona boji belgilangan tartibda to'liq hajmda import qilgan shaxsdan undirib olinishi;

g) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Turizm qo'mitasi) tomonidan ro'yxati shakllantiriladigan xalqaro turizm yarmarkalari va ko'rgazmalarida turizm sohasidagi tadbirkorlar, hunarmandlar, madaniyat va san'at vakillari ishtirok etishi;

bunda, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

xalqaro turizm yarmarka va ko'rgazmalari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetidan 1 milliard so'mdan kam bo'lmagan mablag'lar ajratilishi;

faoliyat boshlaganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarka va ko'rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatining 50 foizi Turizm qo'mitasining budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) mablag'lari hisobidan qoplab berilishi;

hunarmandlarning xalqaro turizm yarmarkalari va ko'rgazmalaridagi paviloni ijarasi, ularda namoyish etiladigan mahsulotlarini tashish va aviachipta xarajatlarning 50 foizi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berilishi;

Turizmni rivojlantirish bo'yicha respublika jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda – Respublika kengashi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Turizmni rivojlantirish bo'yicha mahalliy jamoatchilik kengashlarining (keyingi o'rinlarda – mahalliy kengash) namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Turizm qo'mitasining O'zbekiston Respublikasining turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini yanada mustahkamlashga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi milliy brendini (tanitish belgisi) yaratish to'g'risidagi taklifga rozilik berilganligi:

marketing va brending konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda O'zbekiston Respublikasining yangi milliy turizm brendi (keyingi o'rinlarda – turizm brendi)ni ishlab chiqish;

turizm brendining maqsadli bozorlar (auditoriya) talablaridan kelib chiqib, xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning tarixiy, madaniy, gastronomik, tibbiy va sog'lomlashtirish, arxeologik, ekologik va ekstremal kabi turizmning turlari to'g'risida kontentlar yaratish;

zamonaviy marketing texnologiyalaridan, shu jumladan xalqaro media va ijtimoiy platformalar, butunjahon sport, madaniyat va san'at tadbirlari maydonidan foydalangan holda turizm brendini targ'ib qilish tizimini yaratish;

belgilanishicha,

a) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan turoperatorlarning o'z mahsulotlarini targ'ib qilish maqsadida respublikaga olib kelgan mashhur xorijiy blogerlarning (auditoriyasi 1 milliondan kam bo'lmagan) yashash xarajatlari Jamg'arma mablag'lari hiobidan qoplab berilishi;

bunda, mashhur blogerlarni olib kelish bo'yicha sarf-xarajatlar smetasi Turizm qo'mitasi bilan oldindan kelishilishi;

b) Respublika kengashi har chorakda kamida bir marotaba, mahalliy kengashlar har oyda bir marotaba turizm sohasi sub'ektlari faoliyati, turizm infratuzilmasi va transport logistika sohaslarida vujudga kelayotgan muammolarni ko'rib chiqib, ularni bartaraf qilish va mavsum oldi tayyorgarlik ko'rish hamda oldindan xabar berish tartibi asosida faoliyat yuritishi;

v) 2025-yil 1-yanvardan boshlab kamida 100 nafar xorijiy ishtirokchisi bo'lgan uch kundan kam bo'lmagan biznes tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil qilgan tadbirkorlik sub'ektlari 2028-yil 1-yanvargacha ushbu biznes tadbirlarni tashkil qilishdan olingan daromaddan olingan foyda solig'ini ushbu soliq bo'yicha belgilangan soliq stavkasiga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi bo'yicha to'lashi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-245-son qarorining 3-ilovasi bilan master-rejalar ishlab chiqiladigan 20 ta tuman (shahar)larning ro'yxati tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha, master-rejalar ishlab chiqiladigan hududlarda yer uchastkalarini sotishdan tushgan mablag'lar birinchi navbatda Jamg'arma xarajatlarini qoplashga yo'naltirilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosari S.Sa'dullaev master-rejalar ishlab chiqiladigan 20 ta tuman (shahar) hududlarida infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni moliyalashtirish uchun mas'ul etib belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 360-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Quyidagilar:

Turizmni rivojlantirish bo‘yicha viloyat jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda – Viloyat kengashi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoniga 3-ilova bilan tasdiqlangan xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ijrosini viloyatda ta‘minlash bo‘yicha nazorat-reja 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Viloyat kengashi (B.Nuritdinov) har oyda bir marotaba turizm sohasi subyektlari faoliyati, turizm infratuzilmasi va transport logistika sohalarida vujudga kelayotgan muammolarni ko‘rib chiqib, ularni bartaraf qilishi va mavsum oldi tayyorgarlik ko‘rishi hamda oldindan xabar berish tartibi asosida faoliyat yuritishi;

Viloyat hokimining o‘rinbosari B.Nuritdinovga viloyat hokimi bilan kelishgan holda viloyat kengashi a‘zolari tarkibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi berilganligi;

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari B.Nuritdinov va O.Inamov mas‘ul boshqarma va tashkilotlar hamda Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorga 2-ilova bilan tasdiqlangan “nazorat-reja”da belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta‘minlashlari;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusamadov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari B.Nuritdinov Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) bilan birgalikda 2025-yildan boshlab har yili xalqaro turizm yarmarkalari va ko‘rgazmalari uchun mahalliy budjetdan 1 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan mablag‘lar ajratish yuzasidan taklif kiritib borishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari J.Raximov, Sh.Umaraliyev tumandagi manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmonini hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 360-6-0-Q/24-sonli qarori talablari asosida ish tashkil etilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**